

**GLOBALLASHUV SHAROITI ADABIYOTIDA BADIY ASAR TILI VA  
BADIY NUTQ USLUBI**

**Abdulazizbek Qodirov**

*KUAF dotsenti, f.f.f.d(PhD)*

**Asadullo Namozaliyev**

*Yangi asr universiteti magistranti*

**Shahrizoda Bahodirova**

*O‘z MU magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada badiiy asar tili va uslubi masalalari, badiiy nutq uslubi, asar tiliga munosabat, badiiy asarda syujetning yaratilishi, badiiy ifoda vositalari, asar tarkibidagi so‘zlar hamda iboralar tasviri haqida bayon qilingan. Shu bilan bir qatorda, badiiy asar tilini ifodalashning o‘ziga xos xususiyatlari hamda badiiy matnda tashqi tuyg‘u va tasvirning ifodalanishi namoyon etilgan. Badiiy asar tlini o‘rganishda muallif nutqi va personajlar nutqining o‘zaro aloqadorligi badiiy nutq uslubiyatining markaziy muammolari tahlil qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** *badiiy asar tili, badiiy nutq uslubi, janr va uslub, syujet.*

**LANGUAGE OF LITERATURE AND ARTISTIC SPEECH IN LITERATURE**

**Abstract** *The article describes the language and style of a work of literature, the style of artistic speech, attitude to language, creation of a plot in a work of art, means of artistic expression, the description of words and phrases in a work. At the same time, the features of the expression of the language of a work, as well as the expression of external feelings and images in a literary text are shown. The study of the language of the work analyzes the interrelationships between the author's speech and the speech of the characters, the central problems of the style of artistic speech.*

**Keywords:** *the language of fiction, the style of artistic speech, the genre and style, the plot*

**KIRISH**

Badiiy asar tiliga munosabat, uni badiiy-uslubiy jihatdan o‘rganish uzoq tarixga ega. Biroq unga jiddiy e‘tibor XX asrning 30-yillarida ancha kuchaydi. Jahon va rus adabiyotshunosligida, keyinroq o‘zbek adabiyotshunosligida bajarilgan ko‘pgina tadqiqotlar buni tasdiqlaydi. Akademik V.Vinogradov: “Badiiy adabiyot tilini tadqiq qilish tilshunoslik va adabiyotshunoslikka yaqin, biroq ularning har ikkisidan ajralib turuvchi maxsus filologik fanning tekshirish ob‘yektini bo‘lishi lozim”, -deb ta’kidlaydi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI**

Umuman, adabiyotshunoslikda janr va uslub eng murakkab kategoriyalardan biri hisoblanadi. Ana shu ma’noda badiiy asar tilining ta’sirchanligi, ohangdorligi masalasini o‘rganish adabiyotshunoslik fanining asosiy mohiyatini tashkil etadi. Badiiy asar tili bilan

shug‘ullanish XIX asrda boshlangan edi. Masalan, italyan tilshunosi Banedetto Krochening fikricha, estetik kategoriyalar individual bo‘lganidek, badiiy asar tili bilan bog‘liq lingvistik kategoriyalar ham individuallik kasb etadi. Chunki badiiy asar individual shaxs (yozuvchi, shoir yoki dramaturg)ning o‘z nutqiy faoliyati mahsulidir. Badiiy asarda til o‘zining insonlar orasida aloqa quroli vazifasini to‘la saqlagan holda o‘zining ekspressiv funksiyasini namoyon etadi. Badiiy til umumxalq tili va adabiy til bilan o‘zaro munosabatda bo‘lsa-da, farqli tomonlarga ham egadir.<sup>2</sup> Til badiiy -adabiyotning birinchi elementi, obraz yaratishdagi asosiy quroli sanaladi. Badiiy asarda muallif nutqi va bayonchi nutqi o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Personajlar nutqini tipiklashtirish va individuallashtirishning badiiy asarda o‘ziga xos mezonlari va tamoyillari mavjud. Arxaizm, neologizm, dialektizm kabi leksik vositalar, omonim, sinonim, antonim va paronim singari so‘zning shakl hamda ma‘no munosabatiga ko‘ra turlari badiiy asarlarda muhim uslubiy funkciyalarga egadir. Umuman olganda, adabiy til taraqqiyotida mashhur, talantli yozuvchilarning alohida o‘rni bor. Badiiy asar tili va uslubi masalalari deb nomlangan tanlanma fanda ana shu muammolar xususida fikr yuritiladi, filolog talabalarga badiiy asar tili xususiyatlarini mustaqil tahlil qila olish ko‘nikmalarini singdirishga alohida e‘tibor qaratiladi. Bu tanlanma fan badiiy asarning g‘oyaviy-estetik qiymatini belgilashda til vositalarining o‘rni va ularni o‘rganish usullari haqida talabalarga ixcham va asosli ma‘lumotlar beradi. Shubhasiz, badiiy asarda kompozitsiya u yoki bu ijodiy ishning ketma-ketligini, mantiqiy davomiyligini tartibga keltiruvchi asosiy belgilardan biridir. Kompozitsiya lotin tilidan olingan bo‘lib, compositio ijod, asar degan ma‘noga ega. Kompozitsia har qanday badiiy asarning asosiy qismlaridan biri bo‘lib, ijod mahsuliga yagona birlik va umumiyligni taqdim etadi, uning elementlarini bir-biriga mos kelishini ta‘minlaydi. Badiiy klassik adabiyotda eng ko‘p tarqalgan kompozitsion tur bu rivojlanish (oshib borish, o‘shish) kompozitsiasi hisoblanadi, u bir nechta murakkab jarayonlarni o‘z ichiga oladigan komponentlardan iboratdir. Syujet (fransuzcha - sujet predmet, mazmun) - adabiy asarda tasvirlangan harakatning mazmunini ifodalovchi voqealar sistemasi, aniq voqealar tizmasida namoyon bo‘ladigan harakatlar tarixidir. Badiiy asar tarkibida so‘zlar hamda iboralar sehrli va maftunkor raqqosalarga o‘xshaydi, degan edi mashhur rus yozuvchisi M.Prishvin. So‘zlar va iboralardagi ana shunday xususiyatni to‘g‘ri anglash va ularning estetik qimmatini haqqoniy izohlash maqsadida “Badiiy asar tili va uslubi masalalari” tanlanma fani oliy o‘quv yurtlari o‘zbek filologiyasi fakulteti o‘quv dasturiga kiritilgan.<sup>3</sup> Epistolyar adabiyotda so‘z va gaplar obraz, manzara yaratishning o‘ziga xos libosi, materialidir. Talantli yozuvchilarning qalami sehri ostida so‘zlar hayotdagi narsa va hodisalarni inson ongida aniq tiklaydigan, gavdalantiradigan vositadir. Badiiy nutq faqat ko‘chma ma‘nodagi so‘zlarning qo‘llanilishidan iborat matn bo‘lmay, majoziy vositalar badiiy nutqning o‘ziga xos yordamchi vositasidir. Badiiy asarda leksik va frazeologik vositalarning obrazlar xatti-harakatini, ularning boshqa obrazlar bilan munosabatini ko‘rsatishdagi roli hisoblanadi. Badiiy nutq muallif nutqi, personajlar nutqi va hikoyachi bayonidan iborat matndir. Muallif nutqi va personajlar nutqining o‘zaro aloqadorligi badiiy nutq uslubiyatining markaziy muammolaridan biridir. Ayniqsa, badiiy asar tilini o‘rganishda va uni tahlil qilishda yozuvchining yoki maktub egasining so‘zga munosabati, so‘z tanlash, so‘z qo‘llashdagi

mahorati muhim ekanligini, til vositalarini, so‘zlarni ishlatishda uning o‘ziga xos uslubi, mahorati namoyon bo‘lishini akademik V.Vinogradov “Badiiy asar tilini tahlil qilish asar goyasi bilan bog‘liq hissiy mazmunni ifoda etuvchi lingvistik vositalarni ko‘rsatib berishdir”,—deyar ekan, u to‘la haqlidir.

Badiiy asarda syujetning yaratilishini g‘oyaviy mazmun boshqaradi, g‘oyaviy mazmunning talabiga uyg‘un holda xarakterlar namoyon bo‘ladigan va hayot ziddiyatlarini umumlashtiradigan voqealar silsilasi kashf etiladi. Voqealar silsilasi o‘z navbatida asar g‘oyasini badiiylashtiradi, uni tiriltiradi. Syujet obrazlarning o‘zaro aloqalari, ular o‘rtasidan qarama-qarshiliklar, simpatiyalar va antipatiyalar ekan, demak, u hayot ziddiyatlarini ham ixtiro qiladi, umumlashtiradi, kashf etadi. hayotiy ziddiyatlar asarga ifoda etilgan g‘oyalar, tasvirlangan xarakterlar, kayfiyatlar kurashi tarzida ko‘chadi va u konflikt deb yuritiladi. Badiiy asar tili- obrazli til. Yozuvchi o‘z asarida bir qancha yo‘llar bilan tilning obrazligiga, tasiriyligiga erishadi. Shulardan biri maxsus badiiy tasviriy vositalarini, maxsus leksik pesurslarni, poetik figuralarni, so‘z o‘yinlarini mohirona qo‘llash yo‘li bilan asar tilining obrazliligiga erishishdir. Badiiy asar tilining poeyikligi, obrazliligi, tasviriyligi asar g‘oyasini, shuningdek qahramon xarakterini jozibali qilib ochishga xizmat qiladi.<sup>5</sup> Badiiy asar tili ko‘plab o‘xshatish va tasviriy vositalarga boy bo‘ladi va his tuyg‘uga to‘la bo‘ladi, ilmiy asar tili esa teskarisi. Unda aytilayotgan fikr jo‘n, sodda, hech qanday odamni to‘lqinlantiradigan so‘z tasviri ishlatilmaydi. Badiiy asar tilining asosiy maqsadi go‘zallik qonuniyatlariga muvofiq dunyoni rivojlantirish, badiiy asar muallifining ham, o‘quvchining ham estetik ehtiyojlarini qondirish, badiiy tasvirlar yordamida o‘quvchiga estetik ta‘sir ko‘rsatishdir. Umuman badiiy adabiyot tilining xususiyatlari bir necha omillar bilan belgilanadi. U keng metafora bilan ajralib turadi, deyarli barcha darajadagi til birliklarining obrazliligi, barcha turdagi sinonimlardan foydalanish, polememiya, so‘z boyligining turli uslublari kuzatiladi.

### **XULOSA**

Shunday qilib, yuqoridagi fikrlarning o‘zi ham ko‘rsatib turibtki, badiiy asar tiliga munosabat, uni jiddiy o‘rganish yoki epistolyar texnikaning badiiy xususiyatlarini tahlil etish olimlarning doim e‘tiborida bo‘lgan. Chunki badiiy adabiyotni, uning til xususiyatlarini o‘rganmay turib asar g‘oyasi va mazmunini yaxlit holda chuqur idrok etish mumkin emas. Badiiy asar tilini o‘rganish va tahlil qilish rus va o‘zbek tilshunosligida, shu jumladan, jahon tilshunosligida qator tadqiqotlar amalga oshirilganligini ta‘kidlash mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;**

1. Виноградов В. О языке художественной литературы.-М.: Гостехиздат, 1957.-С.4
2. Yo‘ldoshev B, Qurbonov T. Badiiy asar tili va uslubi masalalari. Samarqand. 2006. B.88.
3. Doniyorov X, Yo‘ldoshev B. Adabiy til va badiiy stil. Toshkent: Fan. 1988. B.71.
4. Виноградов В. О теории художественной речи. –М., 1971. –С. 105-211.